
Obodlik ko'ngildan boshlanadi: Rishton tumanida obodonlashtirish tadbirlari uyushqoqlik bilan tashkillanmoqda

Xalqimiz asrlar davomida tozalik, ozodalikka qattiq rioya qilib kelgan. Chunki, obodlik ko'ngildan boshlanadi. Zero, obod makonda ish unumli va barakali bo'lish bilan birga obod bo'lgan joyda farovonlik hukm suradi. Yurtimiz istiqlolining 32 yilligiga munosib taraddud ko'rish va uni munosib nishonlash, hududlarda obodlik hamda ko'rkamlikni ta'minlash maqsadida Rishton tumanidagi barcha qishloq va mahallalarda keng qamrovli obodonlashtirish tadbirlariga kirishildi. Obodonlashtirish ishlari jarayonida mahallalar, aholi punktlari, ko'p qavatli uylar, hovlilar atrofi, ziyoratgoh va qabristonlar, bog' va sayilgohlarni tartibga keltirish, chiqindilarni belgilangan joyga chiqarib tashlash, ko'chalarni ta'mirlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2023-07-26 08:44:09